

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/2025.27.12.Yil.01.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

ABDUAZIZOV DONIYOR BAXTIYOR O‘G‘LI

**RAQOBAT HUQUQIDA USTUN MUZOKARA KUCHINI SUIISTE’MOL
QILISHNING TADBIRKORLIK-HUQUQIY MASALALARI**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi. Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2026-yil

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of the abstract of the dissertation of the PhD

Abduazizov Doniyor Baxtiyor o'g'li

Raqobat huquqida ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilishning tadbirkorlik-huquqiy masalalari.....3

Абдуазизов Дониёр Бахтиёр угли

Предпринимательско-правовые вопросы злоупотребления превосходной переговорной силой в конкурентном праве.....19

Abduazizov Doniyor Bakhtiyor ugli

Entrepreneurial-Legal Issues of Abuse of Superior Bargaining Power in Competition Law.....37

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....41

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/2025.27.12.Yil.01.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

ABDUAZIZOV DONIYOR BAXTIYOR O'G'LI

**RAQOBAT HUQUQIDA USTUN MUZOKARA KUCHINI SUISTE'MOL
QILISHNING TADBIRKORLIK-HUQUQIY MASALALARI**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi. Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2026-yil

Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Yu1733 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsul.uz) va «ZiyoNET» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Hamrokulov Baxodir Mamasharifovich
yuridik fanlar doktori, professor

Maqsudov Alisher Maqsud o'g'li
yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/2025.27.12.Yu.01.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 28-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahri, Sayilgoh ko'chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36; faks: (99871) 233-37-48; e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1506-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 16-iyul kuni tarqatildi.
(2026-yil 16-iyuldagi 10-raqamli reyestr bayonnomasi).



U. Rysm...
Sh.
...

I.R.Rustambekov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi
o'rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

E.X. Egamberdiyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent

Sh.X. Fayziyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
huzuridagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar
doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilish mustaqil huquqiy muammo sifatida e'tirof etilmoqda. Xususan, mazkur institut dominant mavqega ega bo'lmagan, biroq o'z savdo hamkorlariga nisbatan insofsiz savdo amaliyotlaridan foydalanadigan subyektlarga nisbatan ham qo'llanilmoqda, yirik xaridorlar tomonidan yetkazib beruvchilarga bosim o'tkazish holatlari ustidan faol nazorat amalga oshirilmoqda. 2026-yilda Janubiy Koreyaning Coupang kompaniyasiga 2,2 mlrd von miqdorida jarima solingan, 25 715 nafar yetkazib beruvchini qamrab olgan 508 752 ta to'lovni kechiktirish holati aniqlangan bo'lib, ularning umumiy summasi qariyb 281 mlrd vonni tashkil etgan¹. Yevropa Ittifoqida ham yirik platformalar tomonidan insofsiz savdo amaliyotlaridan foydalanish ustidan nazorat kuchaymoqda. 2025-yilda Digital Markets Act doirasida Apple kompaniyasiga 500 mln yevro², Meta kompaniyasiga esa 200 mln yevro miqdorida sanksiyalar qo'llanilgan³, 2024-yilda esa Meta kompaniyasi adolatsiz shartlarni majburiy yuklash bilan bog'liq huquqbuzarliklar uchun 797,72 mln yevro miqdorida jarimaga tortilgan⁴. Shu munosabat bilan mazkur mavzuni tadqiq etishning dolzarbligi ortib bormoqda, chunki zamonaviy bozorlar nafaqat klassik dominantlik, balki yetkazib beruvchilar, tadbirkorlar va foydalanuvchilarning yirik raqamli platformalar hamda savdo vositachilariga nisbatan amaldagi iqtisodiy qaramligi bilan ham tavsiflanadi.

Jahonda ustun muzokara kuchi institutini tadqiq etish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, mazkur institutning huquqiy tabiatini ochib berish, uning raqobat huquqi va fuqarolik huquqi tizimidagi o'rnini aniqlash, bir tomonning boshqa tomonga iqtisodiy qaramligi mezonlarini belgilash, shartnomaviy munosabatlar ishtirokchilarining muzokara imkoniyatlaridagi tengsizlik belgilarini aniqlash, shuningdek, ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilish shakllarini tasniflashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar faol olib borilmoqda. Shu bilan birga, ommaviy-huquqiy va xususiy-huquqiy himoya mexanizmlarining o'zaro nisbatini tahlil qilish, bunday suiiste'mol holatlarining oldini olish va ularni bartaraf etishda monopoliyaga qarshi organlar hamda sud instansiyalarining rolini o'rganish, shuningdek, shartnomaning zaif tomonini himoya qilishning samarali huquqiy vositalarini ishlab chiqishga ham katta e'tibor berilmoqda.

O'zbekistonda ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilish bilan bog'liq munosabatlar "Raqobat to'g'risida"gi Qonun va bir qator normativ-huquqiy hujjatlarda o'z aksini topgan. Biroq zamonaviy tadbirkorlik munosabatlari va huquqni qo'llash amaliyoti mavjud shartnomaviy mexanizmlar shartnomaning zaif tomonini samarali himoya qilish imkonini bermasligini ko'rsatmoqda. Ustun muzokara kuchiga ega bo'lgan subyektlar shartnoma erkinligidan foydalanib, kontragentlarga adolatsiz va og'ir shartlarni majburiy tarzda yuklash orqali o'z mavqeini suiiste'mol qilmoqda.

¹ <https://www.reuters.com/sustainability/boards-policy-regulation/south-korea-watchdog-fines-coupang-16-million-pressuring-suppliers-delaying-2026-02-26/>

² <https://www.theverge.com/news/627522/apple-meta-eu-dma-antitrust-fines>

³ <https://www.theguardian.com/business/2025/apr/23/eu-fines-apple-and-meta-for-breaching-fair-competition-rules>

⁴ <https://www.reuters.com/technology/eu-fines-meta-797-million-over-abusive-practices-benefiting-facebook-marketplace-2024-11-14>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, Yangi O‘zbekiston ochiq bozor, bozor nazorati, tadbirkorlarni teng himoya qilish va adolatli raqobat sharoitlarini ta’minlash yo‘lidan bormoqda¹.

Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 3-iyuldagi “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF–6079-son “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2020-yil 7-sentabrdagi PF–6019-son “Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 1-maydagi 256-son “Tovar va moliya bozorlarida monopoliyaga qarshi tartibga solish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori, 2005-yil 12-oktabrdagi 225-son “Raqobat, iste’molchilar huquqlarini himoya qilish va reklama to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishi faktlari bo‘yicha ish qo‘zg‘atish va ularni ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 15-martdagi 9-son “Savdo sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklarga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori hamda mavzuga oid boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ustun muzokara kuchi institutini huquqiy tartibga solishning ayrim yo‘nalishlari raqobat va fuqarolik huquqi sohasi mutaxassislari tomonidan o‘rganilgan. Chunonchi, B. Xodjayev, X. Radjapov, M. Tojiboyeva, J. Babayev² kabi yurtimiz olimlari asarlarida mazkur masalaning turli jihatlarini u yoki bu darajada o‘rganilgan. MDH mamlakatlarida N.Guselnikova, Y.Kasyanov, V.Yeremenko, V.Dozorsev, V. Daskalova³ ustun muzokara kuchining fuqarolik-huquqiy tartibga solinishi bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borishgan.

¹ <https://president.uz/ru/lists/view/8397>

² Hayashi S., Khodjaev B. Regulatory Approach and Specification of Unfair Trade Practices in Uzbekistan: Comparison with Japanese Law //同志社法學= The Doshisha Hogaku (The Doshisha law review). – 2017. – T. 68. – №. 7. pp. 3262-3225; Мадаминов А., Раджапов Х. Крупные торговые сети в Узбекистане дискриминируют своих поставщиков. – 2019 // URL: <https://www.podrobno.uz>; Tadjibayeva M.R. – Insofsiz raqobatga qarshi kurashishning fuqarolik-huquqiy vositalari va oqibatlar. Monografiya. – T.: TDYU, 2023. B. 129; Бабаев Д.Ж. Истеъмолчиларнинг ҳуқуқларини интернет тармоғида ҳимоя қилиш. – Т.: ТДЮУ, 2024.

³ Гусельникова Н.Г. Слабый субъект в договорном правоотношении: проблемы идентификации // Юридические исследования. – 2019. – № 5. https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=29568; Касянов Ю. Проблемы российского антимонопольного законодательства // Законодательство и экономика. – 2000. – № 6; Еременко В.И. О пресечении недобросовестной конкуренции // Вопросы изобретательства. – 1992. – № 1–2; Дозорцев В.А. Недобросовестная конкуренция или несправедливая? // Юридический мир. – 1997. – № 4; Daskalova, Victoria. Counterproductive Regulation? The EU’s (mis)adventures in regulating Unfair Trading Practices

Xorijlik olimlardan ustun muzokara kuchini huquqiy tartibga solish V.Mussis, A.Yamada, S.Baker, K.Kravis, M.Vakui, Tomas Cheng, Ioannis Lianos, Klaudio Lombardi, U.Grimes, L.Sangyun, O.Hart, R.Kous, S.Valle, S.Xaynts, X.Li, Marion Baumann, Jennifer P. M. Marsh, Franchesko Karloni, Gabriela da Costa, Tobias Shnayder, Tetsuya Nagasava¹ kabi mutaxassislar tomonidan tadqiq etilgan.

Biroq ushbu olimlar tomonidan shartnomalardagi adolatsiz shartlar masalalari bilan bog'liq u yoki bu masalalar ma'lum darajada tadqiq etilgan bo'lsa-da, ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilish masalasi kompleks yoritilmagan, ushbu institutning doktrinal asoslari ochib berilmagan va suiiste'mollik shakllarining huquqiy tasnifi berilmagan. Bundan tashqari mazkur ishlarda nazariy-huquqiy yondashuvlar va bunday xatti-harakatlarni huquqiy jihatdan malakalash mezonlari yetarlicha yoritilmagan.

Dissertatsiya ishining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Tadbirkorlik subyektlari faoliyati erkinligining kafolatlari va huquqiy himoya tizimini yanada mustahkamlash masalalari" ustuvor yo'nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi – shartnomaviy munosabatlarda ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilishning huquqiy tabiatini kompleks tahlil qilish, uni aniqlash va huquqiy baholash bo'yicha nazariy asoslar va huquqiy yondashuvlarni ishlab chiqish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ustun muzokara kuchi tushunchasi va uning belgilarini yoritib berish;

ustun muzokara kuchini shartnomaviy-huquqiy munosabatlarda suiiste'mol qilish shakllarini tasniflash;

Yaponiya, Germaniya, Koreya Respublikasi, Fransiya, Italiya va boshqa davlatlar misolida ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilishni huquqiy tartibga solishning xorijiy tajribasini tahlil qilish;

ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilish holatini tushuntirib beruvchi

in the Food Supply Chain, 2018; Daskalova, Victoria. Counterproductive Regulation? The EU's (mis)adventures in regulating Unfair Trading Practices in the Food Supply Chain, 2018.

¹ Vassili Moussis, Atsushi Yamada, Abuse of Economic Dependence, Competition Law Dictionary, Concurrences, Art. N° 86372; Baker, Scott & Kravis, Kimberly D. Incomplete Contracts in A Complete Contract World (2006) 33 Florida State University Law Review 725; Wakui, Masako; Cheng, Thomas K. Regulating Abuse of Superior Bargaining Position under the Japanese Competition Law: An Anomaly or a Necessity? Journal of Antitrust Enforcement, 3(2), 2015, pp. 302–333; Lianos, Ioannis; Lombardi, Claudio. Superior Bargaining Power and the Global Food Value Chain. CLES Research Paper Series 1/2016; Grimes, Warren. The Sherman Act's Unintended Bias against Lilliputians (2001) 1 Antitrust Law Journal 243; Lee, Sangyun, A Theoretical Understanding of Abuse of Economic Dependence in Competition Law (June 24, 2022). 17th ASCOLA Conference, Porto, June 30 - July 2, 2022; Oliver Hart., Incomplete Contracts and Control. American Economic Review 2017, 107(7); Coase, Ronald. The Nature of the Firm: Origin, Meaning and Influence (1988) 1 Journal of Law, Economics and Organization 3; Vande Walle, Simon. Exploitative Abuses in EU, German and French Competition Law (2024); Heinz, Silke. Germany publishes report on modernizing the law on abuse of market power in the digital economy; Hwang LEE. Development of Competition Laws in Korea. ERIA-DP-2015-78 ERIA Discussion Paper Series. November 2015. P. 10; Baumann M., Mutschler-Siebert A., Marsh J.P.M., Carloni F., da Costa G., Schneider T. The Enforcement of Abuse of Economic Dependence in the EU; Tetsuya Nagasawa, 'Practical Issues on Finding of Abuse of Superior Bargaining Position' in New Developments in the Regulation of Abuse of Superior Bargaining Position, vol 59.

huquqiy va iqtisodiy nazariyalarni o'rganish;

O'zbekiston amaldagi qonunchiligida shartnomaning zaif tomonini himoya qilishga oid bo'shliqlar va noaniqliklarni aniqlash;

milliy huquqni qo'llash amaliyotida ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilishni aniqlash va unga chek qo'yishga qaratilgan normativ o'zgartirishlar hamda protsessual mexanizmlarni yaratish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida shartnomalarni tuzish va ijro etish jarayonida vujudga keladigan raqobat hamda fuqarolik-huquqiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini O'zbekiston Respublikasi hamda xorijiy davlatlar qonunchiligida ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi raqobatga oid va fuqarolik qonunchiligi hujjatlari normalari, shuningdek, ushbu suiiste'molliklarni aniqlash, oldini olish va ularga chek qo'yishga oid huquqni qo'llash amaliyoti, ilmiy konsepsiyalar va huquqiy yondashuvlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, aniq sotsiologik, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, induksiya va deduksiya kabi usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ustun muzokara kuchini aniqlash mezonlari (masalan, kontragentning iqtisodiy qaramligi mavjudligi, muqobil kontragentga o'tish imkoniyatining cheklanganligi, muhim daromad manbasini yo'qotish xavfi, taklif etilgan shartlarni rad etish bo'yicha real erkinlikning mavjud emasligi), shuningdek, ushbu kuchni suiiste'mol qilishning shartnomaviy munosabatlar doirasidan chetga chiqadigan ekspluatatsion shakllarini (masalan, shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirish, shartnoma predmetiga taalluqli bo'lmagan shartlarni majburan qabul qildirish, qo'shimcha xarajatlarni majburiy yuklash, tovarni asossiz qaytarish yoki uni qabul qilishdan bosh tortish, to'lovni kechiktirish va boshqalar) huquqiy baholash mezonlarini ishlab chiqish, shu jumladan ustun muzokara kuchiga ega xo'jalik yurituvchi subyektlarni e'tirof etishda qo'llaniladigan belgi va sifatlar majmuasini belgilash zaruriyati asoslantirilgan;

tovarni realizatsiya qilish va olishda kamsituvchi shart-sharoitlarni majburan yuklashning huquqiy tabiati, uning ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilishning mustaqil shakli sifatida e'tirof etilishi zarurligi asoslantirildi;

raqamli platformalar tomonidan ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilishning o'ziga xos belgilari va mezonlari (masalan, platformaning raqamli bozorga kirish ustidan nazorati, tadbirkorlar va foydalanuvchilarning platforma infratuzilmasiga qaramligi, tovar va xizmatlarni realizatsiya qilishning muqobil kanallari cheklanganligi, tarmoq effektlarining mavjudligi, katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va ulardan foydalanish va boshqalar) tizimli ravishda asoslab berildi;

raqamli platformalarda iste'molchilar va tadbirkorlar o'rtasidagi shartnomaviy munosabatlarda kamsituvchi shartlarni majburan qabul qildirishning huquqiy oqibatlari, mazkur amaliyot turini suiiste'mollikning mustaqil shakli sifatida normativ-huquqiy jihatdan tartibga olish zarurligi asoslantirildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilishni tartibga solishga qaratilgan samarali mexanizmni shakllantirish maqsadida qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan;

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga shartnomaning zaif tomonini himoya qilishni kuchaytiruvchi umumiy prinsipni nazarda tutuvchi norma kiritish zarurligi asoslantirilgan;

O'zbekiston Respublikasi "Raqobat to'g'risida"gi Qonuniga va unga muvofiq qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarga ustun muzokara kuchi mezonini qonuniy jihatdan mustahkamlash zarurligi asoslab berilgan;

bozor ustunligidan suiiste'mol qilish va muzokara kuchidan suiiste'mol qilishni huquqiy tartibga solishni ajratib ko'rsatish taklifi asoslantirilgan;

shartnomaviy munosabatlarda sodir bo'ladigan suiiste'molliklar xususiyatiga oid, xususan, iqtisodiy qaramlik alomatlari, majburan yuklangan shartlar, shartnomalarning retroaktiv o'zgartirilishi va boshqa bir tomonlama bosim shakllarini qamrab oluvchi tushuntirishlarni birinchi hamda apellyatsiya instansiyalari sudlari uchun hujjatlarga kiritish zarurligi asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ilmiy ishda foydalanilgan metodlar, ilmiy-nazariy yondashuvlar, statistika va sud amaliyotidan misollar rasmiy manbalardan olingani, belgilangan talablarga ko'ra havola qilingani, milliy qonunchilik va xorijiy tajriba qiyosiy o'rganilgani, amaliyot tahlili, sotsiologik so'rov asosida nazariy xulosa va takliflar tayyorlangani, dissertatsiya dastlabki natijalari amaliyotga joriy qilingani va vakolatli davlat idoralari tomonidan tasdiqlangani, xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatatsiyadan o'tkazilib, natijalari yetakchi milliy, chet el nashrlarida e'lon qilingani tadqiqot xulosalarining ishonchliligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, dissertatsiyada shakllantirilgan ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalar ustun muzokara kuchi institutini fuqarolik, tadbirkorlik va raqobat huquqi kesishmasida joylashgan mustaqil huquqiy hodisa sifatida doktrinal jihatdan chuqurroq anglash imkonini beradi. Ishda ilgari surilgan xulosalardan fuqarolik huquqi, raqobat huquqi, tadbirkorlik huquqi, biznes huquqi, qiyosiy huquqshunoslik kabi fanlarni o'qitishda, shuningdek, o'quv qo'llanmalar, o'quv-uslubiy majmualar, ma'ruza materiallari va metodik tavsiyalarni tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, mavzuni o'rganish natijasida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini, xususan, "Raqobat to'g'risida"gi Qonun, Fuqarolik kodeksi, raqobat to'g'risidagi qonunchilik buzilishlarini aniqlash va ularni bartaraf etish tartibini tartibga soluvchi qonunosti normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishda foydalanilishi mumkin. Tadqiqotning amaliy xulosalari ustun muzokara kuchini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish, uni suiiste'mol qilish shakllarini tasniflash, tegishli ishlarni ko'rib chiqishning maxsus protsessual mexanizmlarini belgilash, shuningdek, iqtisodiy jihatdan qaram kontragentlarni huquqiy himoya qilish choralarini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ilmiy-tadqiqot ishining ilmiy natijalaridan quyidagilarda foydalanilgan:

ustun muzokara kuchini va uning ekspluatatsion shakllarini aniqlashning huquqiy mezonlarini ishlab chiqish, xususan, xo‘jalik yurituvchi subyektlarni ustun muzokara kuchiga ega deb e’tirof etishda qo‘llaniladigan belgilar va xususiyatlar majmuini belgilash bo‘yicha takliflar O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonuni 14-moddasini ishlab chiqishda inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining 2025-yil 22-oktabrdagi 2306/03-32-son dalolatnomasi). Mazkur taklif ustun muzokara kuchini e’tirof etishda hisobga olinishi lozim bo‘lgan mezonlar va xususiyatlarni aniqlashning huquqiy asoslarini belgilashga xizmat qilgan;

shartnoma predmetiga taalluqli bo‘lmagan shartlarni, shu jumladan moliyaviy mablag‘lar, boshqa mol-mulk yoki mulkiy huquqlarni boshqa shaxsga topshirish haqidagi asossiz talablarni majburiy qabul qildirish bo‘yicha taklif O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonuni 18-moddasi birinchi qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining 2025-yil 22-oktabrdagi 2306/03-32-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning amalga oshirilishi ustun muzokara kuchiga ega bo‘lgan shaxs tomonidan o‘z kontragentiga tomonlarning shartnomaviy majburiyatlari doirasidan tashqariga chiqadigan adolatsiz va asossiz shartlarni yuklash kabi insofsiz amaliyotni aniqlashning huquqiy asoslarini belgilashga xizmat qilgan;

raqamli platforma operatorining ko‘rsatilayotgan xizmatlar shartlariga, jumladan narx, sifat, hajm va hududga bir tomonlama ta’sir ko‘rsatish imkoniyati mavjud bo‘lganda, bunday holatlarni baholash bo‘yicha taklif O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 1-maydagi 256-son “Tovar va moliya bozorlarida monopoliyaga qarshi tartibga solish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga 2-ilovaning 3-bobi 15-bandi 4-kichik bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining 2025-yil 22-oktabrdagi 2306/03-32-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning amalga oshirilishi raqamli platformalar tomonidan kontragentlarga nisbatan ustun muzokara kuchini suiiste’mol qilish belgilarini aniqlashning huquqiy asoslarini belgilashga xizmat qilgan;

foydalanuvchilardan shartnoma predmetiga taalluqli bo‘lmagan shartlarni majburiy qabul qilishni talab etish hamda tovarni realizatsiya qilish yoki xarid qilishda diskriminatsion shartlarni belgilash, shu jumladan tovarlardan foydalanish shartlarini kiritish bo‘yicha takliflar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 1-maydagi 256-son “Tovar va moliya bozorlarida monopoliyaga qarshi tartibga solish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga 2-ilovaning 5-bobi 19-bandi 15 va 16-kichik bandlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining 2025-yil 22-oktabrdagi 2306/03-32-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning amalga oshirilishi raqamli platformalarda ustun muzokara kuchini e’tirof etishda tadbirkorlar va iste’molchilarga nisbatan shartnomaviy diskriminatsiya belgilarini aniqlashning huquqiy asoslarini belgilashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy anjumanda, xususan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish e'lon qilingan bo'lib, shundan 6 tasi dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan nashrlarda, 3 tasi esa xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tuzilishi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 134 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish (falsafa doktori dissertatsiyasi annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiq etilayotgan muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning **“Ustun muzokara kuchi tushunchasi va uni tartibga solishning huquqiy modellari tizimi”** deb nomlangan birinchi bobida ustun muzokara kuchining huquqiy elementlari, uning mazmuni va asosiy belgilari kompleks tahlil qilingan. Shuningdek, mazkur institutning huquqiy va doktrinal talqinlari o'rganilib, ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilishni tartibga solishning xorijiy davlatlardagi huquqiy modellari muhokama etilgan.

Tadqiqotchi ustun muzokara kuchi tushunchasini tahlil qilishda bir qator huquqshunos (B. Xodjayev, X. Radjapov, M. Tojiboyeva, J. Babayev, Vasili Mussis, Atsushi Yamada, Masako Vakui, Tomas Cheng, Ioannis Lianos, Klaudio Lombardi, Albert A. Foer) olimlarning fikr va qarashlaridan foydalanib, ular bilan munozaraga kirishgan. Mazkur munozara yakunlariga ko'ra “ustun muzokara kuchi” tushunchasiga quyidagi mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan:

“Ustun muzokara kuchi deb bozorda ustun mavqega ega bo'lmagan xo'jalik yurituvchi subyektning kontragent oldida iqtisodiy ustunligi bo'lib, kontragentning iqtisodiy bog'liqligi, xo'jalik yurituvchi subyektni almashtirish imkoniyatlari cheklanganligi hamda bitimni yo'qotish xavfining yuqoriligi sababli ushbu subyekt tomonidan kontragentga biryozlama insofsiz shartlarni qabul qildirish yoki unga iqtisodiy jihatdan asossiz zarar yetkazish imkoniyati mavjud bo'lgan holatni anglatadi”.

Shuningdek, tadqiqotchi tomonidan ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilishni tartibga solish institutini raqobat huquqi doirasiga kiritish masalasi ikki asosiy nazariy yondashuv asosida tahlil qilingan. Birinchi yondashuvga ko'ra

mazkur institutni joriy etish zarurati adolatli raqobat muhitini ta'minlash ehtiyoji bilan izohlanadi. Ikkinchi yondashuv esa iste'molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish zarurati bilan bog'liq.

Bundan tashqari ustun muzokara kuchini raqobat huquqi tizimida tartibga solish nazariy jihatdan *“zaif tomon” doktrinasi* hamda noteng shartnomaviy munosabatlardan kelib chiqadigan vertikal xarakterdagi insofsiz savdo amaliyotlarini cheklash zarurati bilan asoslanadi. Mazkur yondashuvlar orqali iqtisodiy jihatdan kuchli subyektlarning zaif tomonlarga nisbatan salbiy ta'sirini bartaraf etish hamda bozor muvozanatini ta'minlash imkoniyati yaratiladi.

Tadqiqotchi tomonidan ustun muzokara kuchini huquqiy tartibga solishda jahon tajribasi o'rganilib, tartibga solishning uch xil asosiy modellari, xususan, *raqobat huquqi* tizimi doirasida tartibga solishning *maxsus modeli*, *tijorat yoki delikt huquqi* kabi qonunchilik doirasida tartibga solishning *umumiy modeli* hamda muayyan sohadagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan *sohaviy model* tahlil qilingan.

O'zbekiston Respublikasining “Raqobat to'g'risida”gi qonuniga muvofiq raqobat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri bu raqobatni samarali himoya qilish va iste'molchilarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlariga ustuvorlik berish. Shu ustuvor maqsadni inobatga olgan holda ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilishni tartibga solishni *maxsus raqobat huquqiy modelini* qo'llash orqali asoslanganligi tahlil qilindi.

Tadqiqotchi tomonidan bir qator mamlakatlarning yondashuvlari tahlil qilinib, milliy huquqiy rejim uchun Yaponiya yondashuvi alohida e'tiborga loyiq, deb topildi. Mazkur mamlakatning yondashuvi dunyo amaliyotida ilk kompleks model hisoblanadi. Uning dolzarbligi shundaki, mazkur mamlakat amaliyoti ustun muzokara kuchini tartibga solishning umumiy normalar yoki tarmoq sohalari qonunchiligi doirasida emas, balki maxsus qoidalar orqali tartibga solinadigan mamlakatlarga nisbatan huquqiy ta'sir choralarining yanada yetuk va tizimli mexanizmini taklif etadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilish shakllari: ularning huquqiy mezonlari klassifikatsiyasi”** deb nomlanib, ushbu bobda ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilish shakllaritahlil qilingan.

Tadqiqotchi tomonidan ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilish shakllari va ularning huquqiy mezonlari o'rganildi. Olib borilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning milliy huquqni qo'llash amaliyotida ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilish shakllarini aniqlash borasida yagona yondashuv mavjud emas. Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasining tarkibiy bo'linmalari munosabatlarini tahlil qilish jarayonida ushbu institutga nisbatan yondashuvlarning sezilarli darajada xilma-xilligi aniqlangan. Xususan, ayrim bo'linmalar ushbu hodisaning faqat ayrim infratuzilmaviy sohalalarda misollarini keltirgan bo'lsa, boshqalari hamkorlikdan asossiz bosh tortish, nohaq narx siyosatini qo'llash va bozorga kirishni cheklash kabi keng doiradagi erkin raqobatni buzuvchi amaliyotlar sifatida talqin qilgan. Shu bilan birga, ayrim bo'linmalar faqat umumiy iboralar bilan cheklangan bo'lib, bu mezonlarning

yetarlicha ishlab chiqilmaganini va yagona tasnifning shakllanmaganini ko'rsatadi.

Akademik hamjamiyat e'tibori ham ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilish muammosi tizimli xarakterga ega ekanini tasdiqlaydi. Tadqiqotchilar chakana savdo tarmoqlarida, fermer va klasterlar o'rtasidagi munosabatlarda hamda qishloq xo'jaligi sohasida ko'plab kamsituvchi amaliyotlar uchrayotganini qayd etadilar. Bunda shartnomaning zaif tomoni iqtisodiy jihatdan noqulay talablar, to'lovlarning kechiktirilishi, shartlarning bir tomonlama o'zgartirilishi kabi iqtisodiy bosimga duchor bo'lmoqda.

Shundan kelib chiqqan holda, tadqiqotchi tomonidan *bitim shartlarini bir tomonlama majburan yuklash yoki o'zgartirish orqali kontragent manfaatlarini kamsitishga olib keluvchi* suiiste'mollik shaklini ko'rib chiqish jarayonida

T. Nagasavaning ilmiy qarashlari, JFTC hamda *Sanyo-Marunaka, Ralse, Direx* ishlari bo'yicha sud xulosalari ushbu shaklning asosiy mezonlarini aniqlashda imkon bergan.

Tadqiqotchi ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilishning "*Yetkazib beruvchiga asosiy bitim predmetiga bevosita aloqasi bo'lmagan tovar yoki xizmatlarni xarid qilish majburiyatini yuklash*" shaklini tahlil qilish jarayonida JFTC va sudlar yondashuvlariga tayangan holda ushbu shaklni huquqiy jihatdan baholashda har bir muayyan holat uchun bir qator belgilarni va sharoitlarini birgalikda baholash zarurligini ta'kidlaydi

Dissertantning fikricha, tegishli harakatlarni ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilish sifatida baholashning asosiy omili ularning halol va oqilona tadbirkorlik prinsiplariga zid bo'lishidir. Bunday zidlik, avvalo, bitim shartlarining nomutanosibliigi va iqtisodiy jihatdan asossizligi, shuningdek kontragentning qaramligi yoki zaifligidan foydalanish hamda zaif tomonning real tanlov erkinligi va muqobil xaridorning mavjud emasligida namoyon bo'ladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilish amaliyotlarini aniqlash va huquqiy baholash**" deb nomlangan. Mazkur bobda ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilish holatlarini aniqlash choralari, shuningdek bunday suiiste'mollikni baholash mezonlari va usullariga oid masalalar ko'rib chiqiladi. Tadqiqotchi ushbu huquqbuzarlikni aniqlashga doir amaliyotni moddiy va protsessual huquq jihatlariga ajratish maqsadga muvofiq ekanini ta'kidlaydi. Bunday tasniflash muallifning mustaqil yondashuvini ifodalaydi va ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilish bilan bog'liq ishlarni aniqlash jarayonida yuzaga keladigan asosiy masalalarni moddiy huquq hamda protsessual huquq nuqtayi nazaridan tahlil qilish zarurati bilan izohlanadi.

Shuningdek, mazkur bob tomonlar o'rtasidagi shartnomaviy munosabatlar doirasida yuzaga keladigan ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilish holatlarining shartnomaviy jihatlarini huquqiy baholashni tahlil qilgan.

Yaponiya tajribasi asosida O'zbekiston Respublikasi "Raqobat to'g'risida"gi qonunining 18-moddasiga ko'ra ustun mavqega yoki ustun muzokara kuchiga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektning yoki bir guruh shaxslarning pirovard natijada raqobatni cheklashga va (yoki) iste'molchilarning, boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini kamsitishga olib

keladigan harakatlari, taqiqlanishi ta'kidlangan.

Tadqiqotchi ta'kidicha, ustun muzokara kuchi mavjudligini aniqlash yakka bir mezon asosida emas, balki yuqoridagi barcha omillarni qamrab olgan kompleks baholash asosida amalga oshiriladi. Bu yondashuv mazkur institutning huquqiy tabiati murakkabligini va uni aniqlashda individual holatlarning muhimligini ifodalaydi.

A. Yamada, T.Nagasava va boshqa olimlar fikriga ko'ra bunday xatti-harakatlarni ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilish sifatida baholash imkonini beruvchi ikki asosiy belgi mavjud:

1. Kontragent ushbu noqulay oqibatlarni oldindan bashorat qilolmasligi, ya'ni, bunday xavfning kelib chiqishini zaif tomon oldindan anglay olmasligi;

2. Kontragentga yuklatilgan majburiyatning u olishi mumkin bo'lgan foydasiga nisbatan mutanosib emasligi, ya'ni xatti-harakatning iqtisodiy jihatdan izohlanmaydigan darajada og'ir bo'lishi.

Tadqiqotchiga ko'ra O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida ustun muzokara kuchi instituti bevosita mustahkamlanmagan bo'lsa-da, uning alohida unsurlari shartnoma taraflarining tengligi va halollik tamoyillarini talqin qilish jarayonida namoyon bo'ladi. Amaliyotda bu, ayniqsa, tadbirkorlikda eng ko'p uchraydigan shartnoma turlarida oldi-sotdi, yetkazib berish va komissiya shartnomalarida kuzatiladi.

XULOSA

“Raqobat huquqida ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilishning tadbirkorlik-huquqiy masalalari” mavzusida o'tkazilgan tadqiqot natijasida quyidagi ilmiy-nazariy va amaliy takliflar hamda xulosalar ilgari surildi:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar

1. Xalqaro tajriba ustun muzokara kuchidan suiiste'mol qilinishi bo'yicha uchta asosiy tartibga solish modelini o'zida jamlaydi: *maxsus model*, bunda tegishli taqiqlar bevosita raqobat to'g'risidagi qonunchilikda mustahkamlanadi; *umumiy model*, bunda bunday holatlar fuqarolik, tijorat va boshqa umumiy qonunchilik orqali tartibga solinadi; *sohaviy model*, bunda muayyan iqtisodiyot sohalarini tartibga solishga qaratilgan qonunchilik normalari qo'llaniladi.

Har bir mamlakatda tartibga solishning maqsadlari turlicha: ba'zi davlatlarda asosiy e'tibor adolatli raqobatni ta'minlashga qaratilgan bo'lsa, boshqalarida – iqtisodiy jihatdan kuchli tomon tomonidan noqulay shartlar yuklanishidan kontragentni himoya qilishga, yana boshqalarida esa ta'minot zanjirlari ishtirokchilarining o'ziga xos guruhlarini himoya qilishga qaratilganligi xulosa qilindi.

2. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilishni tartibga solishda *maxsus model* amal qiladi. Mazkur model “Raqobat to'g'risida”gi qonun va unga oid normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solingan. Biroq amaldagi yondashuv asosan “*erkin raqobat*” konsepsiyasiga asoslangan bo'lib, xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan “*insofli raqobat*” prinsipi

yeterli darajada asos qilib olinmagan.

